XONGELDIYEVA SEVARA SHUXRAT QIZI
O'zbek filologiyasi fakulteti
Filologiya va tillarni o'qitish: o'zbek tili ta'limi yo'nalishi
2-bosqich talabasi
Ilmiy rahbar: ***Umurqulov Bekpo'lat***

TIL MADANIYATI VA NUTQ ODOBI

Annotatsiya: Bu maqolada til ijtimoiy hodisa ekanligi va uning nutq bilan bevosita bog'liqligi, nutq madaniyati jamiyat madaniy-ma'rifiy taraqqiyotining, millat ma'naviy kamolotining muhim belgisi ekanligi haqida mulohazalar bildirilgan.

Kalit so'zlar: Til, nutq, me'yor, nutqning voqealanishi, og'zaki va yozma nutq, dialogik va monologik nutq.

Til - aloqa quroli, til - hayot ko'zgusi, til - ma'naviyat belgisi. Insonni hayvonot olamidan ajratib, uni koinot sarvariga va gultojiga aylantirgan omil ham tildir. Inson aqliy faoliyatining eng oliy mahsullari, tafakkur "mevalari" til va nutq orqali yuzaga chiqadi. Qadimgi islomiy manbalarda aytilishicha, bani basharning yaratuvchisi Tangri taoloning bir og'iz "bo'l" degan so'zi bilan olam yaralgan ekan. Buning uchun so'zga e'tiqod, so'zga berilgan ta'rifu tavsiflar, so'zning tarixiy xizmatiga aytilgan sharaflar cheksizdir. Ulug' Alisher Navoiy so'zga shunday baho beradi:

So'zdurki, nishon berur o'likka jondin,
So'zdurki, berur jonga xabar jonondin.
Insonni so'z ayladi judo hayvondin.
Bilkim, guhari Sharifroq yo'q ondin.

So'zning tarixiy - madaniy, ma'naviy xizmatlar cheksiz, albatta. Lekin tilning imkoniyatlari nutq orqali, nutq jarayonida ochiladi. Nutq bo'lmas ekan,

tilning cheksiz imkoniyatlari yuzaga chiqmay qolaveradi. G'arb donishmandlaridan R. Emirsonning ta'kidlashicha, "Nutq - qudratli kuch: u ishontiradi, undaydi, majbur etadi". Bu gapda nutqning shunday fazilati ta'kidlanyaptiki, u, birinchi navbatda, ishontirish san'atidir[1,33]. Til va tafakkurni bir-biridan alohida tasavvur etib bo'lmaydi. Til bilan tafakkur bir-birini taqozo etadigan ajralmas hodisadir. Tilsiz tafakkur bo'lmaganidek, til ham tafakkursiz bo'lmaydi. Tilning inson uchun fikrlash vositasi bo'lishi, moddiy asos sifatida xizmat qilishi uning amalda bo'lishidagi birinchi bosqich hisoblanib, ikkinchi bosqichda fikr, tafakkur mahsuli reallshadi, ya'ni u miyadan tashqariga chiqadi. Shunday qilib, ikkinchi bosqichda til kommunikativ – aloqa vazifasini bajarishga kirishadi. Material maqomida turgan til muomala vositasiga, nutqiy jarayon quroliga aylanishi bilan uning imkoniyat doirasi ham kengayib boradi. Inson nutqiy faoliyatida kommunikativ vazifani bajarayotgan til ko'magida suhbatdosh yoki tinglovchiga ma'lum axborot ham yetkaziladi. Shu o'rinda tilning hech bir imkoniyati nutqsiz, nutqiy jarayonsiz amalga oshmasligi, yuzaga kelmasligiga ham amin bo'lamiz. Til va tafakkurning birligi nutqda o'z ifodasini topadi. Nutq og'zaki va yozma holda mavjud bo'lib, unda fikrimiz moddiy shaklga, ya'ni hissiy idrok etadigan shaklga kiradi va shu tariqa u endi bir shaxsga emas, balki jamiyatga tegishli bo'lib qoladi. Ma'lum bo'ladiki, til nutqning o'ta muhim unsuri sifatida aloqa, xabar, ta'sir etishdek, shu bialn birga, imkoniyatlari nihoyatda kengayib borishi natijasi o'laroq kishilik jamiyati to'plagan tajriba va bilimlarni kelajak avlodlarga yetkazishdek ulug'vor ijtimoiy vazifani bajaradi. O'z shakllanishi va rivojlanib borishi davomida uzoq tarixiy yo'lni bosib o'tadigan til asta-sekinlik bilan bo'lsa-da, takomillshib ham boradi. Bu holni uning ichki qurulishida, amalda bo'lish qoidalarining ma'lum bir tizimga kela borishida kuzatamiz. Tilning takomillashib borishi va nutq jarayonidagi bosqichlarini taniqli tilshunos olimlar H.Ne'matov va R.Rasulovlar sistem tilshunoslik "til-me'yor-nutq" tarzida ajratishini ta'kidlashib, qayd qiladilarki, "til bevosita kuzatishda berilmagan. U jamiyat a'zolarining ongida mavjud bo'lib, ularning barchasi uchun tayyor, umumiy, majburiy bo'lgan, fikrni

shakllantirish va uni ifodalashga xizmat qiladigan birliklar va ularning o’zaro munosabatlari haqidagi tasavvurlar yig’indisi sifatida qaraladi. Nutq tilning namoyon bo’lishi, ro’yobga chiqish, voqealanish shakli bo’lib, u bevosita kuzatishda berilgan, moddiy (tabiiy,fizik) shaklga egadir. Me’yor (norma) – til birliklarini nutqning u yoki bu ko’rinishida ishlatish qonuniyatlari va imkoniyatlari bo’lib, ular jamiyat tomonidan belgilangan va aniqlangandir”. Anglashilyaptiki, til va nutq material va uning voqealanishi nuqtai nazaridan boshqa-boshqa tushunchalar bo’lish bilan birga, ular bir-birlarisiz mutlaqo yashay olmaydi ham. Me’yor esa ularning yashash tarzini belgilaydi. Jamiyat taraqqiyoti bilan insonlarning tilga bo’lgan ehtiyoji ham o’sib boraveradi[2].

Tilning yozma va og’zaki me’yorlarini belgilash muammolarini hal qilish har bir milliy til madaniyatini rivojlantirishning uzviy qismi sifatida qaraladi. Shuning uchun ham me’yor masalalarining nutq madaniyati doirasida o’rganilishi bejiz emas. Nutq madaniyati muammolarini o’ragangan olimlar, nutq madaniyati problemasining o’rganilishi ikki aspektga ega degan fikrlarni bildirishgan: birinchisi, o’zbek adabiy til normalarini, imkoniyat doiralarini yanada silliqlash, stabillash bilan bog’liq bo’lgan nutq madaniyati problemalari; ikkinchisi esa o’zbek adabiy tilidan bu tilda gapiruvchi jamiyat a’zolarining to’g’ri, izchil hamda namunali foydalana olishlari uchun yordamlashishi bilan aloqador bo’lgan nutq madaniyati problemalari. Xo’sh, nutq madaniyati nima? Ana shu savolga javob berish ushbu mavzuning asosiy maqsadi sanaladi. Keyingi paytlarda tilshunoslikda nutq madaniyati va til madaniyati atamalari tez-tez tilga olinadigan bo'ldi. Nutq madaniyati tushunchasining lisoniy, ilmiy-amaliy mundarijasi ancha izchil belgilangan. Nutq madaniyati deganda nimani anglamoq kerak? Til madaniyati deyish to'g'rimi yoki nutq madaniyati deyish to'g'rimi? Yoki ba'zi tilshunoslar ta'kidalganidek, nutq odobi va so'z odobi atamalarini qo'llash ma’quldir[3,12]. Nutq madaniyati tushunchasi, uning asosiy mohiyati ushbu tushunchaning yuzaga kelish davri, tadqiqot obyekti boshqa lisoniy kategoriyalaridan chegarasi hamda ish ko'rish tarzi haqida turli fikrlari mavjud. Bu muammolar nutq madaniyati o'zining nazariy

asosiga to'la ega bo'lmay turib, hal bo'lmaydi. Hozirgi kunda bu borada qator yutuqlar qo'lga kiritildi: nutq madaniyati ilmiy muammo sifatida tan olindi. Uni tadqiq qilish lozimligi qator olimlar tomonidan ma'qullandi. Tilshunos V.V.Veselilskiy: "Hozirgi nutq madaniyati bo'yicha tadqiqot olib borishning zarurligini isbotlab o'tirish ortiqcha", deb yozgan edi. Nutq madaniyatini alohida fan sifatida o'rganilishiga qarshilar ham bo'lgan. Sababi nutq madaniyati hodisasining tilshunoslikda yetarli darajada oydinlashmaganligi, qolaversa, u oddiy, aniq hodisa sifatida ko'rsatilmasdan, umumiy, mavhum tarzda talqin etib kelinayotganligidandir. Nutq madaniyati tilshunoslikda o'z o'rnini topishi va mavqeiga ega bo'lishi uchun, u nazariy jihatdan asoslanishi, uning tekshirish obyekti, muammolari, ilmiy uslubi, shuningdek, amaliy ahamiyati singari masalalar aniqlashtirilishi, isbotlanishi kerak. Ba'zi tilshunoslar nutq madaniyatini sof nazariy muammo deb, ba'zilari esa uni faqat amaliy muammo va soha sifatida talqin etishadi. Nutq madaniyati etikaviy kategoriya, psixologik yoki metodik- pedagogik muammo tarzida talqin etilgan hollari ham mavjud. Nutq madaniyati deb yuritilayotgan hodisa bir qator murakkab, ammo mavjud til faktlari: ilmiy, ilmiy-amaliy tasavvurlar, aniq nutqiy jarayon ko'rinishlari va talablari bilan aloqadordir[3,13]. Nutq - kishilaming ongida mavjud lisoniy imkoniyatlami og'zaki yoki yozma shakllarda voqelantirilishi. Masalan, aytgan yoki yozgan gaplarimiz nutq bo'lib, u lisoniy bilim va malakamiz tufayli sodir bo'ladi. Nutqiy faoliyat tildan foydalanuvchilaming gapirish, nutq so'zlash bilan birga, tinglash jarayoni ham. Mashhur amerikalik notiq psixolik Deyl Kamegi "yaxshi suhbatdosh - yaxshi gapirishni emas, balki yaxshi tinglashni biladigan suhbatdoshdir" deganda aynan shu qobiliyatning insonda rivojlangan bo'lishini nazarda tutgan edi. Nutqiy faoliyat kundalik faoliyatimizning tarkibiy qismidir. Nutq madaniyati kishilaming kundalik nutqiy faoliyati bilan aloqador. Adabiy tilning o'zi nutq madaniyatini tashkil eta olmaydi. Adabiy tildan, uning madaniylashgan vositalaridan nutqiy faoliyatda foydalanilgandagina adabiy til nutq madaniyati vositasiga aylanadi. Masalan, hozirgi zamon o'zbek adabiy tihda ta'lim-tarbiya ishlari olib boriladi, ilmiy va badiiy adabiyotlar nashr

etiladi, gazeta va jumallar chiqariladi. Radio va televideniye eshittirishlarida ushbu til me'yorlariga amal qilinadi. Yozma nutqda o'zbek tilining imlo qoidalariga, gapirganda esa, adabiy talaffuz talablariga rioya etiladi[4,18]. Nutq madaniyati to'g'risida bir qancha olimlar o'z fikrlarini bayon etgan. Jumladan, S.I.Ojegov: "Yuqori nutq madaniyati nima? Yuqori nutq madaniyati – bu o'z fikrlarini til vositalari bilan to'g'ri, aniq va ta'sirchan qilib bera olishdir. To'g'ri nutq deb esa hozirgi adabiy til me'yorlariga rioya qilib tuzilgan nutqqa aytiladi. Ammo yuqori nutq madaniyati faqatgina me'yorga rioya qilishdangina iborat emas. U fikrni ifodalashning aniq vositasini izlash bilan birga, birmuncha ta'sirchan va maqsadga muvofiq vositalarni toppish uquvini ham o'z ichiga oladi" degan bo'lsa, L.I.Skvorsov: "Nutq madaniyati tushunchasi bir tomondan nutqning adabiy til me'yorlariga mos kelish darajasini bildirsa, ikkinchi tomondan, tilshunoslik fanining madaniyat quroli bo'lgan adabiy tilni mukammallshtirish maqsadida me'yorlashtirirish muammolari bilan shug'ullanuvchi sohasidir" deya ta'kidlagan. Ma'lum bo'ladiki, nutq madaniyati, agar masalaga til nuqtai nazaridan qaraladigan bo'lsa, bu, bu eng avvalo, nutqning to'g'riligi demakdir. Ikkinchidan esa, u uslubiy jihatdan silliq bo'lishi kerak ya'ni unda noaniqlikka, ikkima'nolikka, uzundan-uzoqlikka yo'l qo'yilmasligi, qisqalik, soddalik va aniqlik bu nutqning asosiy o'lchovi bo'lishi lozim. Keng ma'noda esa nutq madaniyati nutqiy ta'sirchanlikni, ijodiy yorqinlikni, o'tkirlik va obrazlilikni ifoda etadi. Shu sohaning yirik bilimdoni prof. E.Begmatovning qayd etishicha, ma'naviyatimiz tarixida "nutq odobi" deb yurutib kelingan qoidalar uning ko'hna tarixga ega ekanligidan dalolat beradi[2].

Xulosa o'rnida aytadigan bo'lsak, nutq madaniyatini puxta egallash, uni muomala jarayonida maqsadga muvofiq tarzda qo'llay olish nafaqat huquqshunosga katta mas'uliyat yuklaydi, ayni paytda, unga obro' ham keltiradi. Bunga esa osonlik bilan erishib bo'lmaydi. Til ilmini yaxshi bilish va uni amaliyotda mahorat bilan qo'llay olishgina ana shu obro'ning zarur sharti bo'lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. R.Rasulov, N.Xusanov, Q.Muydinov "Nutq madaniyati va notiqlik san'ati" (o'quv qo'llanma) – Toshkent 2008, 33-b.
2. http/fayllar.org.com. Til va nutq, til madaniyati va nutq madaniyati – 2022 y.
3. A.J.Omonturdiyev, Sh.I.Abduraimova "O'zbek nutqi madaniyati va uslubiyati" (bakalavr va magistrlar uchun qo'llanma) – Toshkent 2016y. 12-13-bet.
4. Raupova Laylo "Nutq madaniyati" – T.: Innovatsiya ziyo, 2019 y, 18-bet.